

# **Uzbekistan Airways'dan Toshkent-Nyu-York yo‘nalishi bo‘yicha 20% chegirma**

**2023 7 Fevral**

Uzbekistan Airways 2023-yil 7-fevraldan 10-aprelgacha Toshkent – Nyu-York – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshiriladigan barcha aviaqatnolarning ekonom va biznes-klass tariflariga 20% maxsus chegirma taqdim etadi.

Chegirmanning shartlari:

- Chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
- Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi, bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi. Qisman foydalanilgan aviachipta pulini chegirma tugagandan keying kunda qaytarmoqchi bo‘lgan yo‘lovchi chegirma amal qilgan kunda sotib olgan miqdorda qaytarib oladi;
- 04.11.2023 dan boshlab aviareyslarda to?liq foydalanilmagan, chegirma bilan chiqarilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalar qo?llanilmagan holda to?liq tarif darajasiga qo?shish zarur;
- 07.02.2023 dan 04.10.2023 gacha bo‘lgan davrda ilgari berilgan aviachiptalar aviaqatnovlar uchun qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirma tarifga qo‘llanilmaydi;
- 2023-yil 11-apreldan boshlab chegirma bilan chiqarilgan qisman foydalanilgan aviachiptalar reyslarga qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirma aksiya muddatiga to‘g‘ri kelmagan 2-segmentga nisbatan qo‘llanilmaydi;
- Chegirma faqat aksiya muddatiga to‘g‘ri keladigan sayt uchun amal qiladi;
- Chegirmalarni birlashtirish (bolalarniki bundan mustasno) taqiqlanadi;
- Chegirma Toshkent-Nyu-York yo‘nalishi bo‘yicha e’lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflariga, borish va qaytish uchun ruxsat etiladi.

Aviachiptalarni chegirma bilan [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales filiali va uning agentlaridan, shuningdek, aviakompaniyaning chet eldag‘i vakolatxonalaridan xarid qiling.